



## O'zbek tili fanini o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati

Jurayeva Maxfuza Kamilovna

Toshkent viloyati Ohangaron shahar 7-sonli alohida ta'lism ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan mакtabning davlat tili fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** ushbu ilmiy maqolada alohida ta'lism ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta'lism muassasalarida ta'lism boshqa tillarda olib boriladigan o'quvchilarga o'zbek tili fanini o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati haqida so'z boradi.

**Ushbu maqolaniyzishdan maqsad:** alohida ta'lism ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktablarda davlat tili fanini o'qitilishi, tilimizga hurmat va g'urur hissini shakllantirish.

**Usullar va ta'limi o'yinlar:** "ADVACODE", "WWW (WRONG WRITE WORD)", "Har kim – har kimga o'rgatadi", "To'xtamlar asosida o'qish", "Kim birinchi yetib keladi?".

**Natija:** yosh avlodni davlat tiliga muhabbat, o'zbek tilida to'g'ri va ravon gapirish hamda yozish ko'nikmasini rivojlantirish.

**Kalit so'zlar:** davlat tili, nutq o'stirish, pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat, harflar, grammatika, o'zbek tili.

**Importance of using new pedagogical technologies in teaching Uzbek language**

Jurayeva Makhfuzha Kamilovna

Ohangaron city, Tashkent region No. 7 had special educational needs of a specialized school for children teacher of the state language

**Abstract:** this scientific article talks about the importance of using new pedagogical technologies in teaching Uzbek language to students who are taught in other languages in specialized educational institutions for children with special educational needs.

**The purpose of writing this article is** to teach the state language in specialized schools for children with special educational needs, to form a sense of respect and pride for our language.



**Methods and educational games:** "ADVACODE", "WWW (WRONG WRITE WORD)", "Everyone teaches everyone", "Reading based on stops", "Who will arrive first?".

**The result:** developing the young generation's love for the state language, the ability to speak and write correctly and fluently in Uzbek.

**Key words:** state language, speech development, pedagogical technology and pedagogical skill, letters, grammar, Uzbek language.

### **Важность использования новых педагогических технологий в обучении узбекскому языку**

**Джураева Махфуза Камиловна**

г. Охангарон, Ташкентская область.

У № 7 были особые образовательные потребности  
специализированной детской школы учитель государственного языка

**Аннотация:** в данной научной статье говорится о важности использования новых педагогических технологий при обучении узбекскому языку учащихся, обучающихся на других языках в специализированных образовательных учреждениях для детей с особыми образовательными потребностями.

**Цель написания данной статьи** – преподавание государственного языка в специализированных школах для детей с особыми образовательными потребностями, формирование чувства уважения и гордости за наш язык.

**Методика и развивающие игры:** «АДВАКОД», «WWW (НЕПРАВИЛЬНО НАПИШИТЕ СЛОВО)», «Все всех учат», «Чтение по остановкам», «Кто придет первым?».

**Результат:** развитие у молодого поколения любви к государственному языку, умения правильно и свободно говорить и писать на узбекском языке.

**Ключевые слова:** государственный язык, развитие речи, педагогическая технология и педагогическое мастерство, буквы, грамматика, узбекский язык.

Bugungi kunda jamiyatimizda yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi, ta'limning jahon ta'limga integratsiyalashuvi zamonaviy pedagogik texnologiyalarda yangicha yondashuv zarurligini taqozo etmoqda. Bu yondashuvlar o'z navbatida o'quv jarayonining



tashkiliy va metodik jihatlariga muayyan ijobiylar o‘zgarishlar olib kirmoqdaki, ularning ko‘pchiligi pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat bilan uzviy bog‘liq. Har bir darsni o‘ziga xos usul asosida o‘tish, o‘quvchining fanga bo‘lgan qiziqishini oshirish, uning qalbida ilmga muhabbat uyg‘otish o‘qituvchining mahoratiga bog‘liq. Muallimning mahoratini oshirishga xizmat qiluvchi vositalardan biri zamonaviy pedagogik texnologiyalardir. Ayniqsa, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalarida ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan o‘quvchilarga o‘zbek tili fanini o‘qitishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishda pedagogik hamkorlikni turini to‘g‘ri tashkil etishning maqsad va vazifalarini chuqr tushungan holda didaktik qoidalarga rioya qilishi lozim. U eng avvalo darsning asosiy vazifalariga rioya qilishi lozim. Quyida o‘zbek tili darslarini samarali tashkil etishda qo‘llanadigan usullar va ta’limiy o‘yinlarni taqdim etishni joiz topdim.

**“ADVACODE” METODI.** Ushbu maqolada “himoyachi”degan ma’noni bildirib, bunda muammoli savollarni hal qilishda, o‘quvchilarni birgalikda savollarga javob berishda yordam beradi. Ushbu metodni amalga oshirishda quyidagi qoidalarga amal qilinadi: 1.Sinf o‘quvchilari 2 guruhga bo‘linadi.

2.Guruh ishtirokchilari navbatma-navbat bir-biriga aynan ismini aytib mavzu yuzasidan savollar beradi. Ikkinci guruh ishtirokchilaridan ismi ta’kidlangan o‘quvchi mavzu yuzasidan savollarga javob beradi, agar o‘quvchilar xato javob bersa, himoyachilar safidan chiqariladi. Bu usulorqali o‘quvchilarni bir-biriga bo‘lgan do‘stona munosabatini yanada yaxshilaydi va ularning muammoli vaziyatga yechim topishda birdamlilikni ta’minlaydi, shuningdek, nutq so‘zlash gapirishga doir ko‘nikmalarni rivojlantirilishi mumkin.

**“WWW (WRONG WRITE WORD)” METODI.** ushbu metod “NOTO‘G‘RI SO‘ZNI YOZ” degan ma’noni anglatib,o‘quvchilarni teran fikrlashga va sinchkovlikka, fikrini jamlashga o‘rgatadi. Ushbu usul quyidagicha tashkil etiladi: 1. Sinf o‘quvchilari ikki guruhga bo‘linadi.2. Birinchi guruhdan 1 nafar o‘quvchi doskaga chiqadi va ikkinchi guruh ishtirokchilari biror bir so‘zni teskari o‘qib beradilar.

3. Doskadagi o‘quvchi o‘sha so‘zni topib yozishi kerak bo‘ladi.

Shu tariqa davom etadi va so‘ngida har bir to‘g‘ri topilgan so‘zlar uchun 5 balldan berib boriladi.



4. O‘yin so‘ngida ball hisoblanib g‘olib jamoa aniqlanadi.

Bu usul orqali o‘quvchilarning diqqatini jamlashga yordam berishi, teran fikrlash va raqibning savolini sinchkovlik bilan o‘rganishga yordam berishi, har qanday fan va har qanday darsda foydalansa bo‘lishi, qolgan o‘quvchilarni ham qiziqtirib birinchi bo‘lib topishga undashi bilan ahamiyatli.

**“Har kim – har kimga o‘rgatadi” metodi.** Ushbu metod o‘quvchilarga o‘rgatuvchiga aylanish, ma’lum bilmlarni o‘zlashtirgach, o‘rtoqlari bilan baham ko‘rish imkonini beruvchi o‘qitish uslubidir. Bu metodning maqsadi o‘quvchilarga o‘qitish jarayonida zarur bo‘lgan axborot maksimumini berish, ayni paytda o‘quvchida axborot olish va berishga qiziqish uyg‘otishdir. Shuningdek axborot hajmini olgan o‘quvchi ma’lum vaqt davomida uni iloji boricha ko‘proq o‘rtoqlariga yetkazadi.

**Qo‘llanilishi:** o‘quvchilarda axborot olish va berishga qiziqish uyg‘otish uchun;  
-axborotni diqqat bilan eshitish va eslab qolish uchun;  
-sherigining axborotini tinglab, boshqa sherik axtarish uchun

**Afzalligi:** o‘z fikrini lo‘nda bayon etishi, tinglash va eslab qolish darajasini rivojlantirishi, fanga yoki mavzuga bo‘lgan qiziqishini uyg‘otishi.

O‘quvchilar kichik guruhlarga bo‘linadilar. Hamma guruh a’zolariga dastlab bir xil masala yozilgan tarqatma tarqatiladi va masalani yechish shartlari tushuntiriladi. “Har kim – har kimga o‘rgatadi” metodi. Dars jarayonida barcha o‘quvchilarni qamrab oladi. Mavzuni o‘z tengdoshlari yordamida o‘zlashtirilishiga imkoniyat yaratadi. Ushbu texnologiyadan ko‘zlangan maqsad ham shu.

**“To‘xtamlar asosida o‘qish” usuli.** Bu usulda biror hikoya boshlab beriladi va qolgani o‘quvchilardan so‘raladi. O‘quvchilar mustaqil fikrlashga o‘rgatiladi. Bu usul orqali o‘quvchilarda gapirib berish ko‘nikmasi shakllantiriladi. O‘quvchilarning fikri aynan hikoyaga to‘g‘ri kelmasa ham mazmuniga yaqini tanlanadi.

**“Harflar adashib qoldi” o‘yini.** Doskaga bosma harflardan iborat so‘z yoziladi. Undagi biror harfning o‘rni almashtirib qo‘yilgan bo‘ladi. Yozuv yoniga shu narsaning rasmini ilib qo‘yish mumkin. O‘quvchiga narsaning nomini bir necha marta talaffuz qilish, bo‘g‘inlab aytish tavsiya qilinadi. Shundan so‘ng doskadagi so‘zning adashib qolgan harflari o‘z o‘rniga qo‘yiladi va so‘z yozma harflarda yozdiriladi.



**“Kim birinchi yetib keladi?” o‘yini.** Daftarning birinchi qatoriga doskadagi so‘zлarni yozish tavsiya etiladi. O‘quvchilarga husnixat qoidalariga amal qilish lozimligi uqtiriladi, vaqt belgilanadi. Birinchi yozib bo‘lgan o‘quvchi qo‘lini ko‘taradi. O‘qituvchi uning yozuvini takshirib, natijani aytadi. Bu o‘yin doskada musobaqa tarzida ham o‘tkazilishi ham mumkin. Bu xil yozuv o‘yin mashg‘ulotlari boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga (rus va qardosh) lotin grafikasiga asoslangan harflarni yozuvga o‘rgatish jarayonida qo‘llaniladi va ularning to‘g‘ri hamda chirolyi yozuvga bo‘lgan qiziqishlarini orttirib, so‘z boyligini oshiradi.

Xulosa o‘rnida shuni alohida ta’kidlash joizki, ta’lim jarayoning ta’limiy tarbiyaviy va rivojlantiruvchi asosiy vazifalari har bir darsda ta’limning ushbu funksiyalari amalga oshirilishi shart hisoblanadi. Darsning ta’limiy tarbiyaviy va rivojlantiruvchi funksiyalarining turlari, shuningdek ularni amalga oshirish usullarini izlash boshlang‘ich ta’lim metodikasi va amaliyotning takomillashuviga yordam beradi. Zero, zamonaviy pedagogik texnologiya – hozirgi zamon didaktikasi va pedagogikasi taraqqiyotining mahsuli.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejulashtirish. T., “Iqtisodiyot”, 2012-yil.
2. “Til va adabiyot ta’limi” jurnali, 5-son, 2018-yil.
3. Yo’ldoshev R.A. O’zbek tili darslarida o‘quvchilarning og’zaki nutq. 2012-yil.
4. Muxitdinova X. S. Til ta’limining xalqaro kompetensiyaviy talablarini o‘zbek tiliga joriy etishga doir mulohazalar. T-2014-yil.